

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI FAOLIYATINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6200-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining tuzilmasi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari apparatining namunaviy tuzilmasi 3 va 4-ilovalarga muvofiq;

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari apparatining namunaviy tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi irrigatsiya tizimi boshqarmalari apparatining namunaviy tuzilmasi hamda boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 6 va 6a-ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar (Quvasoy shahar) irrigatsiya bo‘limlarining namunaviy tuzilmasi hamda boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 7 va 7a-ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari apparatining namunaviy tuzilmasi 8-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalar apparatining namunaviy tuzilmasi 9-ilovaga muvofiq;

Suv omborlaridan foydalanish boshqarmalari apparatining namunaviy tuzilmasi 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Suv xo‘jaligi vaziriga:

zarur hollarda, Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, shuningdek, hududiy bo‘linmalar, tizimdagi tashkilotlar tuzilmalariga boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirish kiritish;

yirik gidrotexnika inshootlarining, eng avvalo, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda, qurilishida va ekspluatatsiya ishlari olib borilishida xavfsizlik choralari ko‘rilishi yuzasidan buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari hamda suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning javobgarligini oshirish vazifalarini belgilash;

yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va ta‘lim muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy

kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini maslahatchi sifatida jalb etish huquqi berilsin.

3. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6200-son Farmoni bilan joriy qilingan suv xo'jaligi vazirining:

a) suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan o'rinbosari quyidagilar uchun shaxsan javobgardir:

suvni tejaydigan texnologiyalarni hududlarning tuproq-iqlim sharoitlari, ixtisoslashuvi hamda suv va boshqa zarur resurslar bilan ta'minlanganligidan kelib chiqib joriy etishni tashkil qilish;

suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlarning hisobini yuritish hamda davlat subsidiyalarini ajratish mexanizmini avtomatlashtirish;

suvni tejaydigan texnologiyalarni qo'llash borasida ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash;

b) davlat-xususiy sheriklik va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi quyidagilar uchun shaxsan javobgardir:

suv xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va autsorsing mexanizmlarini joriy etishni rivojlantirish;

suv xo'jaligi obyektlari boshqaruvini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish;

suv xo'jaligi obyektlarida suvning hisobi va elektr energiyasi iste'molini raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilish orqali suvdan foydalanish shaffofligini ta'minlash hamda samaradorligini oshirish;

er usti suvlaridan foydalanish bo'yicha davlat suv kadastrini yuritishni zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirish.

4. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tuzilmasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

suv xo'jaligida kapital qurilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoralik asosida tanlash, ularning yillik, qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish;

suv xo'jaligida kapital qurilish loyihalarining manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tasdiqlash;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishi, ekspertizadan o'tkazilishi va bosh pudrat tashkilotlarini tanlov (tender) asosida aniqlashni hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirishni tashkil qilish;

suv omborlari va boshqa toifalangan suv xo'jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tizimli monitoring yuritish, shuningdek, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari tomonidan shaharsozlik normalari va

qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash, loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish.

5. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining (keyingi o'rinlarda — Markaz) tuzilmasi 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin: suv xo'jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiya loyihalarini, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda — XMI va XHMT) mablag'lari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoralik asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va shakllantirish;

suv xo'jaligi sohasidagi xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun XMI va XHMT mablag'larini jalb qilish;

XMI va XHMT mablag'lari ishtirokidagi xorijiy investitsiya loyihalari manzilli ro'yxatlari belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkil qilish;

suv xo'jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan XMI va XHMT mablag'lari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

suv xo'jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan XMI va XHMT ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tender savdolari asosida bosh pudrat tashkilotlarini belgilangan tartibda aniqlash hamda tegishli shartnomalarni rasmiylashtirish;

loyihalar va subloyihalar amalga oshirilishining tizimli monitoringini olib borish, shuningdek, buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash.

6. Belgilansinki:

Agentlik faoliyati Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi;

Agentlik Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy manzilidagi "A" binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi;

Markaz Jahon banki loyihalarini amalga oshirish guruhi, Osiyo taraqqiyot banki loyihalarini amalga oshirish guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhlarini loyihalarini amalga oshirish guruhining shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi;

Markazga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan kelishilgan holda suv xo'jaligi vazirining taqdimnomasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan direktor rahbarlik qiladi;

Markaz direktori maqomi, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlari bo'yicha vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi;

Markaz faoliyati Davlat budjeti mablag'lari, XMI va XHMT mablag'lari, Markaz buyurtmachi bo'lgan loyihalar doirasida amalga oshiriladigan qurilish ishlaridan ajratmalar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi;

Markazga Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Labzak ko'chasi, 1a-uy manzilidagi "A" blokning 2 va 3-qavatlarini tekin foydalanish huquqi asosida beriladi.

7. Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh.R. Xamrayev) va Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) tegishli xalqaro moliya institutlari bilan kelishilgan holda suv xo‘jaligida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida uch oy muddatda:

Agentlikning obyektlarda texnik nazoratni amalga oshiruvchi mutaxassislari mehnat me‘yorini belgilash bo‘yicha normativlar tasdiqlanishini;

Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarning qarz (kredit) kelishuvlari muddatlari uzaytirilishini;

Markaz xodimlarining oylik ish haqi ikki barobarga oshirilishini ta‘minlasin.

8. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O.A. Pekos) Agentlik hamda Markazning buyurtmanomalariga muvofiq ularni belgilangan tartibda zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqa vositalari bilan hamda yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulanishini ta‘minlasin.

9. Suv xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

10. Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh.R. Xamrayev) bir oy muddatda:

Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati va uning hududiy bo‘linmalarini, shuningdek, Agentlik va Markazni zarur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga, yuklatilgan vazifalarni professional darajada amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlar bilan to‘ldirsin;

Suv xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy bo‘linmalari va ular rahbarlari faoliyatini baholashning aniq ko‘rsatkichlari va maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan mutlaqo yangi tizimini joriy etish, yaqin, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan sohani strategik rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish sifati hamda samaradorligini ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘rsin.

11. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda:

Suv xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risidagi nizomni;

Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi to‘g‘risidagi nizomni;

Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4486-son qaroriga 14-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 15-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

14. Suv xo‘jaligi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.


15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Sh.M. G‘aniyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV


Toshkent sh.,
2021-yil 6-aprel,
PQ-5055-son


**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining
TASHKILY TUZILMASI**





**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatining
TUZILMASI**






Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni — 83 birlik.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat koʻrsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar boʻyicha belgilanadi.

* xorijiy ekspertlar hisobidan jamlanadi, xalqaro moliya institutlarining grant mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladi va boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga kirmaydi.


**Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining
TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni — 22 birlik.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo'yicha belgilanadi.

**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari apparatining
NAMUNAVIY TUZILMASI**




Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 231 birlik, shu jumladan:

Norin-Qoradaryo, Amu-Buxoro, Amu-Qashqadaryo, Norin-Sirdaryo, Zarafshon, Amu-Surxon, Chirchiq-Ohangaron, Sirdaryo-So'x va Chapqirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarida — 20 birlik;

Sirdaryo-Zarafshon, Quyi Zarafshon va Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarida — 17 birlik.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo'yicha belgilanadi.

**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi magistral kanallar (tizimlar)
boshqarmalari apparatining
NAMUNAVIY TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni:

Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi «Surxondaryo» magistral tizimi boshqarmasi — 10 birlik;


Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi «Toshkent» magistral kanali boshqarmasi — 6 birlik;

Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi «Katta Namangan» magistral kanali boshqarmasi — 7 birlik;

Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi «Shimoliy Farg‘ona» magistral kanali boshqarmasi — 8 birlik.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil
6-apreldagi PQ-5055-son qaroriga
6-ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmalari huzuridagi irrigatsiya tizimi boshqarmalari apparatining
NAMUNAVIY TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 5 — 16 birlik.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi irrigatsiya tizimi boshqarmalari boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 392 birlik.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo‘yicha belgilanadi.


O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi
PQ-5055-son qaroriga
6a-ILOVA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi irrigatsiya tizimi boshqarmalari boshqaruv xodimlarining
CHEKLANGAN SONI

T/r	Tashkilotlar nomi	Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi		
1.	«Kattagar-Bo‘zatov» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
2.	«Qanishjarma» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
3.	«Qizketken-Kegeyli» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	9
4.	«Paxtaarna-Nayman» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	10
5.	«Suenli» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	13
6.	Orolbo‘yi delta boshqarmasi	4
Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
7.	«Andijonsoy» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
8.	«Qoradaryo-Maylisoy» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	4
9.	«Savay-Oqburasoy» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	4
10.	«Ulug‘nor-Mazgilsoy» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	6
11.	«Shahrixonsoy» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	6
Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
12.	«Amu-Qorako‘l» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
13.	«Toshrobot-Jilvon» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	6
14.	«Xarxur-Duoba» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
15.	«Shoxrud-Do‘stlik» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
16.	«Zomin» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
17.	«Tuyatortar-Qli» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	4
18.	«Uchtom» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
19.	«Qarshi magistral kanali» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	17
20.	«Mirishkor» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	11
21.	«Oqsuv» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
22.	«Eski anhor» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
23.	«Yakkabog‘-G‘uzor» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
Quy Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
24.	«Karmana-Konimex» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
25.	«Toshrobot-O‘rtacho‘l» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		

26.	«Zardaryo» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
27.	«Norin-Haqqulobod» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
28.	«Podshoota-Chodak» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
29.	«Oq-Qoradaryo» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
30.	«Darg'om» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	11
31.	«Miankal-Tos» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	5
32.	«Mirza-Pay» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	9
33.	«Narpay» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
34.	«Amu-Zang» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	11
35.	«Surxon-Sherobod» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	9
36.	«To'polang-Qoratog'» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	11
Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
37.	«Boyovut» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	14
38.	«Sho'ro'zak-Sirdaryo» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	11
Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
39.	«Ohangaron-Dalvarzin» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	12
40.	«Bo'zsu» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	10
41.	«Parkent-Qorasuv» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	13
Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
42.	«Isfayram-Shohimardon» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	9
43.	«Isfara-Sirdaryo» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
44.	«Norin-Farg'ona» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	9
45.	«So'x-Oqtepa» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	7
Chapqirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi		
46.	Amudaryo Chapqirg'oq himoya dambalari boshqarmasi	5
47.	«Polvon-G'azovat» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
48.	«Toshsaqa» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	8
49.	«Shovot-Qulovat» irrigatsiya tizimi boshqarmasi	10

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar
(Quvasoy shahar) irrigatsiya bo'limlarining
NAMUNAVIY TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 4 — 10 birlik.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar (Quvasoy shahar) irrigatsiya bo'limlari boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 1 154 birlik.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo'yicha belgilanadi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmalari huzuridagi tumanlar (Quvasoy shahar) irrigatsiya bo'limlari
boshqaruv xodimlarining
CHEKLANGAN SONI**

T/r	Tashkilotlar nomi	Toifasi	Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni
I. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi			
1.	Amudaryo tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
2.	Beruniy tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
3.	Bo'zatov tuman irrigatsiya bo'limi	III	8
4.	Kegeyli tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
5.	Qonliko'l tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
6.	Qorao'zak tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
7.	Qo'ng'iro't tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
8.	Mo'ynoq tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
9.	Nukus tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
10.	Taxiatosh tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
11.	Taxtak'o'pir tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
12.	To'rtko'l tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
13.	Xo'jayli tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
14.	Chimboy tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
15.	Shumanay tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
16.	Ellikqal'a tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
II. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
17.	Andijon tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
18.	Asaka tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
19.	Baliqchi tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
20.	Bo'ston tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
21.	Buloqboshi tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
22.	Jalaquduq tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
23.	Izboskan tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
24.	Qo'rg'on'tepa tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
25.	Marhamat tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
26.	Oltinko'l tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
27.	Paxtaobod tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
28.	Ulug'nor tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
29.	Xo'jaobod tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
30.	Shahrixon tuman irrigatsiya bo'limi	II	6

III. Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
31.	Buxoro tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
32.	Vobkent tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
33.	G'ijduvon tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
34.	Jondor tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
35.	Kogon tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
36.	Qorako'l tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
37.	Qorovulbozor tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
38.	Olot tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
39.	Peshku tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
40.	Romitan tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
41.	Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
IV. Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
42.	Arnasoy tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
43.	Baxmal tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
44.	G'allaorol tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
45.	Do'stlik tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
46.	Zarbdor tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
47.	Zafarobod tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
48.	Zomin tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
49.	Mirzacho'l tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
50.	Paxtakor tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
51.	Forish tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
52.	Sh. Rashidov tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
V. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
53.	G'uzor tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
54.	Dehqonobod tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
55.	Kasbi tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
56.	Kitob tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
57.	Koson tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
58.	Qamashi tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
59.	Qarshi tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
60.	Mirishkor tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
61.	Muborak tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
62.	Nishon tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
63.	Chiroqchi tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
64.	Shahrisabz tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
65.	Yakkabog' tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
VI. Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
66.	Karmana tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
67.	Konimex tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
68.	Navbahor tuman irrigatsiya bo'limi	III	4

69.	Xatirchi tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
VII. Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
70.	Kosonsoy tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
71.	Mingbuloq tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
72.	Namangan tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
73.	Norin tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
74.	Pop tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
75.	To'raqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
76.	Uychi tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
77.	Uchqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
78.	Chortoq tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
79.	Chust tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
80.	Yangiqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
VIII. Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
81.	Bulung'ur tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
82.	Jomboy tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
83.	Ishtixon tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
84.	Kattaqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
85.	Narpay tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
86.	Oqdaryo tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
87.	Payariq tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
88.	Pastdarg'om tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
89.	Paxtachi tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
90.	Samarqand tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
91.	Tayloq tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
92.	Urgut tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
IX. Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
93.	Angor tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
94.	Bandixon tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
95.	Boysun tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
96.	Denov tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
97.	Jarqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
98.	Qiziriq tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
99.	Qumqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
100.	Muzrabot tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
101.	Oltinsoy tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
102.	Sariosiyo tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
103.	Termiz tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
104.	Uzun tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
105.	Sherobod tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
106.	Sho'rchi tuman irrigatsiya bo'limi	III	4


X. Quyi-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
107.	Boyovut tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
108.	Guliston tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
109.	Mirzaobod tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
110.	Oqoltin tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
111.	Sayxunobod tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
112.	Sardoba tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
113.	Sirdaryo tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
114.	Xovos tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
XI. Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
115.	Bekobod tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
116.	Bo'ka tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
117.	Bo'stonliq tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
118.	Zangiota tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
119.	Qibray tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
120.	Quyi Chirchiq tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
121.	Oqqo'rg'on tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
122.	Ohangaron tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
123.	Parkent tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
124.	Piskent tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
125.	Toshkent tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
126.	O'rta Chirchiq tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
127.	Chinoz tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
128.	Yuqori Chirchiq tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
129.	Yangiyo'l tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
XII. Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi			
130.	Beshariq tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
131.	Bag'dod tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
132.	Buvayda tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
133.	Dang'ara tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
134.	Yozyovon tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
135.	Quva tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
136.	Quvasoy shahri irrigatsiya bo'limi	II	8
137.	Qo'shtepa tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
138.	Oltiariq tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
139.	Rishton tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
140.	So'x tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
141.	Toshloq tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
142.	O'zbekiston tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
143.	Uchko'prik tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
144.	Farg'ona tuman irrigatsiya bo'limi	I	10
145.	Furqat tuman irrigatsiya bo'limi	II	8

XIII. Chapqirg'och Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi

146.	Bog'ot tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
147.	Gurlan tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
148.	Qo'shko'pir tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
149.	Tuproqqal'a tuman irrigatsiya bo'limi	II	8
150.	Urganch tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
151.	Hazorasp tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
152.	Xiva tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
153.	Xonqa tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
154.	Shovot tuman irrigatsiya bo'limi	II	6
155.	Yangiariq tuman irrigatsiya bo'limi	III	4
156.	Yangibozor tuman irrigatsiya bo'limi	III	6
Jami			1 158

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
6-apreldagi PQ-5055-son qaroriga 8-ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari apparatining
NAMUNAVIY TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 116 birlik, shu jumladan:

Amu-Qashqadaryo, Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarida — 10 birlik (I guruh);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qoraqalpog‘iston nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida, Amu-Surxon, Norin-Qoradaryo, Quyi Sirdaryo, Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarida — 9 birlik (II guruh);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Beruniy nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida, Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasida — 8 birlik (II guruh);


Amu-Buxoro, Sirdaryo-Zarafshon, Quyi Zarafshon, Chirchiq-Ohangaron, Chapqirgʻoq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarida — 7 birlik (III guruh).

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat koʻrsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar boʻyicha belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
6-apreldagi PQ-5055-son qaroriga 9-ILOVA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalar apparatining

NAMUNAVIY TUZILMASI




Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 102 birlik, shu jumladan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyada, Norin-Qoradaryo, Amu-Buxoro, Amu-Qashqadaryo, Amu-Surxon, Chapqirg‘oq Amudaryo, Norin-Sirdaryo, Quyi Sirdaryo, Sirdaryo-Zarafshon, Sirdaryo-So‘x va Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalarda — 8 birlik (I guruh);

Quyi Zarafshon va Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalarda — 7 birlik (II guruh).

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo‘yicha belgilanadi.

**Suv omborlaridan foydalanish boshqarmalari apparatining
NAMUNAVIY TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 77 birlik, shu jumladan:

Chimqo‘rg‘on suv ombori, Surxondaryo viloyati suv omborlari, To‘polang suv ombori tizimlaridan foydalanish boshqarmalarida — 4 birlik.

Jizzax viloyati, Samarqand viloyati, Toshkent viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarida, Navoiy viloyati suv omborlaridan va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmalarida — 5 birlik;

Farg‘ona viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarida — 6 birlik;


Qashqadaryo viloyati, Namangan viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarida — 9 birlik;

Tuyamo‘yin gidrouzelidan foydalanish boshqarmasida — 10 birlik.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo‘yicha belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
6-apreldagi PQ-5055-son qaroriga
11-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Cuv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi
TUZILMASI**




Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni — 20 birlik.


* Agentlik shtat birliklari soni doirasiga kirmaydi.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni belgilangan me'yorlarga muvofiq aniqlanadi.

«Suvqurilishinvest» davlat muassasalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga ajratilgan kapital mablag'lar hajmiga hamda obyektlar soniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Agentlik tomonidan har yili aniqlik kiritiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Cuv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining
TUZILMASI**





Boshqaruv xodimlarining umumiy shtatlar soni — 20 birlik.

* xalqaro maslahatchi, loyihalarni amalga oshirish guruhlarini xodimlari, shu jumladan hududiy guruhlar xodimlari soni amalga oshirilayotgan loyihalar soniga ko'ra belgilanadi hamda Markaz xodimlari hisoblanadi.

Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarini ishlab chiqish uchun mutaxassislar, shu jumladan xorijiy va mahalliy mutaxassislar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.

Ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlariga muvofiq normativlar bo'yicha belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil
6-apreldagi PQ-5055-son qaroriga
13-ILOVA

**Suv xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha
«YO‘L XARITASI»**

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish				
1.	Suv xo‘jaligi sohasidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar, texnik reglamentlar, standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar, jumladan suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish va ularni bosqichma-bosqich takomillashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2021–2022-yillar bosqichma-bosqich	Suv xo‘jaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, ISMITI*
2.	Suv omborlarini suv bilan to‘ldirish va suvni chiqarish rejimi tartibini ishlab chiqish.	Suv xo‘jaligi vazirligining buyrug‘i	2021-yil 1-may	Suv xo‘jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, «O‘zbekgidroenergo» AJ
3.	Suv resurslarini dispetcherlik xizmati orqali boshqarish tartibini ishlab chiqish.	Suv xo‘jaligi vazirligining buyrug‘i	2021-yil 1-dekabr	Suv xo‘jaligi vazirligi, «O‘zgidromet» markazi, «O‘zbekgidroenergo» AJ, «Amudaryo» va «Sirdaryo» havzalari suv xo‘jaligi birlashmalari

4.	Gidropostlar pasportlarining namunaviy shakllarini va ularni attestatsiyadan o'tkazish tartibini ishlab chiqish.	Suv xo'jaligi vazirligining buyrug'i	2021-yil 1-iyun	Suv xo'jaligi vazirligi, Inspeksiya, Davlat geologiya qo'mitasi, «O'zgidromet» markazi
5.	Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan, shuningdek, avvaldan foydalanib kelinayotgan suv xo'jaligi obyektlari xavfsizlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish.	Chora-tadbirlar	2021-yil 1-may	Suv xo'jaligi vazirligi, Inspeksiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, «O'zbekgidroenergo» AJ
6.	«Suvqurilishinvest» davlat unitar korxonalarini davlat muassasalari sifatida qayta tashkil etish va ularning nizomlarini tasdiqlash.	Idoraviy buyruq	2021-yil 10-may	Suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari

II. Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash

7.	Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta'minlash uchun avariya moddiy-texnika zaxiralarini yaratish va ulardan foydalanishning yangilangan tartibini, shu jumladan avariya moddiy-texnika vositalari ro'yxatini ishlab chiqish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-iyun	Suv xo'jaligi vazirligi, Inspeksiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi
8.	Yirik suv omborlari va gidrotexnika inshootlarida avariya va favqulodda vaziyatlar haqida aholini	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yildan boshlab jadval bo'yicha	Suv xo'jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, «O'zbekgidroenergo» AJ, «O'zbekiston

	ogohlantirishning zamonaviy tizimini respublika budjeti mablagʻlari hisobidan bosqichma-bosqich yaratish.			temir yoʻllari» AJ, «Amudaryo» va «Sirdaryo» havzalari suv xoʻjaligi birlashmalari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Moliya vazirligi, Inspeksiya
9.	Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida suv omborlari, sel-suv omborlari, boshqa yirik suv xoʻjaligi obyektlari, daryolar va gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini taʼminlash, ishonchliligini oshirish va ularni ishlatish boʻyicha yoʻriqnomalar ishlab chiqish.	Yoʻriqnomalar	2021–2023-yillar	Suv xoʻjaligi vazirligi, Inspeksiya, ISMITI*, TIQXMMIMTU**
10.	Suv omborlarida qoʻriqlash va kuzatuv tizimini tanqidiy oʻrganish va ularni takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqish. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi: qoʻriqlash xizmatining nazorat maydonlarining mavjudligi; zamonaviy videokuzatuv va favqulodda xabar berish tizimining mavjudligi; qoʻriqlashning samaradorligi; suv omborlari xavfsizligining toʻliq taʼminlanganligi;	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil avgust	Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Inspeksiya, Suv xoʻjaligi vazirligi, Moliya vazirligi, «Oʻzbekgidroenergo» AJ

	suv omborlari xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar.			
11.	Suv omborlari ta'sir hududidagi aholini tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilishda idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yish.	Idoralararo chora-tadbirlar	Har yili fevral	Mahalliy davlat hokimiyati organlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Inspeksiya, Suv xo'jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, «O'zbekgidroenergo» AJ
12.	Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda suv omborlari, gidrouzellar, nasos stansiyalari va boshqa yirik suv xo'jaligi obyektlarida amalga oshiriladigan tadbirlar yuzasidan o'quv-taktik mashg'ulotlarni o'tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili aprel	Suv xo'jaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Inspeksiya, Energetika vazirligi, «O'zbekgidroenergo» AJ
13.	Respublikadagi barcha suv omborlari va yirik gidrotexnik inshootlarni har yili sug'orish mavsumi tugaganidan so'ng (suv omborlarida suv sathi pasaygandan so'ng), shuningdek, yozgi sug'orish mavsumida Respublika idoralararo ishchi guruhi tomonidan o'rganib chiqish va har bir suv ombori va gidrotexnika	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili may-iyun va oktabr-noyabr	Inspeksiya, Suv xo'jaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Energetika vazirligi, «O'zbekgidroenergo» AJ, loyiha tashkilotlari hamda mahalliy hokimiyat organlari

	inshootining xavfsiz ishlashi yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash.			
III. Suv xo‘jaligi sohasida suvni va elektr energiyasini tejash texnologiyalarini keng joriy qilish				
14.	Turli meliorativ sharoitlarda tomchilatib sug‘orish tizimlari uchun sug‘orishning avtomatlashtirilgan modulini yaratish va sinovdan o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021–2022-yillar	ISMITI*, Suv xo‘jaligi vazirligi
15.	Amu-Buxoro mashina kanalidan foydalanish, Qarshi magistral kanalidan foydalanish hamda Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmalariga qarashli va boshqa yirik 35 va 110 kVt/soat kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlariga ulangan nasos stansiyalariga elektr ta’minoti bo‘yicha kiritiladigan cheklovlar va uzilishlarning oldini olish yuzasidan shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini ta’minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili shartnomalarni rasmiylashtirish jarayonida	«Hududiy elektr tarmoqlari» AJ, Suv xo‘jaligi vazirligi
16.	Melioratsiya sohasida xorijiy mamlakatlarning, shu jumladan Xalqaro irrigatsiya va drenaj komissiyasining ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularning natijalarini amaliyotga joriy qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021–2022-yillar	Suv xo‘jaligi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi
IV. Suv xo‘jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish				

17.	Suv omborlari, irrigatsiya tizimi kanallari va nasos stansiyalarida suv va elektr energiyasi sarfini raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilish tizimini joriy qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021–2023-yillar	Suv xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, «O‘zeltexsanoat» uyushmasi
18.	Sug‘oriladigan yerlarda yer osti suv sathi monitoringini raqamli texnologiyalar asosida yuritish hamda yerlarning meliorativ holatini baholash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021–2024-yillar	Suv xo‘jaligi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi
19.	Suv xo‘jaligida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-iyun	«O‘zeltexsanoat» uyushmasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Davlat geologiya qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi
20.	Geoaxborot va raqamli texnologiyalar asosida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash bo‘yicha monitoring tizimini takomillashtirish. Sizot suvlari sathi, minerallasuvi va sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish dinamikasi ustidan real vaqt rejimida monitoring olib borishni ta’minlaydigan	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-oktabr	Suv xo‘jaligi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ISMITI*

	avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish.			
21.	Qashqadaryo viloyatining Mirishkor-Qamashi kanalida «Rubicon Water Pty. Ltd» korxonasi tomonidan yaratilgan suv resurslaridan foydalanishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish.	Obyektni o'rganish; shartnomani rasmiylashtirish; loyihani amalga oshirish; obyektni foydalanishga kiritish	2021-yil aprel 2021-yil may 2021-yil sentabr-noyabr 2021-yil dekabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, ISMITI
V. Suv xo'jaligi sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish				
22.	Islom taraqqiyot banki ishtirokida «Surxondaryo viloyatida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash (Xazarbog' - Oqqopchig'ay kanallar tizimini qayta tiklash)», Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) agentligi ishtirokidagi «Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlarini qayta tiklash», Jahon banki ishtirokida «Janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash» loyihalari bo'yicha qarz va kredit kelishuvlari muddatlarini uzaytirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil may	Moliya vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
23.	Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan har bir loyiha va subloyihalar bo'yicha	Taklif tayyorlash	2021-yil may	Suv xo'jaligi vazirligi, Markaziy bank

<p>tijorat banklarida alohida talab qilib olgungacha depozit (ikkilamchi) hisobraqamlari ochish, ushbu hisobraqamlar orqali oylik ish haqi, soliq, korporativ plastik kartalarga mablag‘ o‘tkazish, shuningdek, loyiha doirasidagi boshqa xarajatlarni amalga oshirish vakolatini berish, hisobraqamlardan Markazning boshqa loyihalardagi qarzdorligi va majburiyatlarni bajarish uchun to‘lovlar amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish.</p>				
VI. Suv xo‘jaligi sohasida ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish				
24.	<p>Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish jarayonlari hamda olingan natijalarni amaliyotga joriy etish tizimini takomillashtirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni transfer qilish hamda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishni jadallashtirish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil iyun	Suv xo‘jaligi vazirligi, ISMITI*, TIQXMMI**
25.	<p>Irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini loyihalashtirish ishlariga yosh olim va</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili jadval bo‘yicha	Suv xo‘jaligi vazirligi, ISMITI*, TIQXMMIMTU**

	tadqiqotchilarni keng jalb etish.			
26.	Suv xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi kollejlarda amaliy mashg‘ulotlar va tajriba-sinov ishlarini olib borish maqsadida tajriba xo‘jaligi uchun 5 gektardan yer maydonlarini ajratish.	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari	2021-yil 10- may	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, Suv xo‘jaligi vazirligi
27.	Suv xo‘jaligi sohasida «Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi», «Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi» hamda «Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik» ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy darajaga ega xodimlar tayyorlash tizimini yaratish.	Oliy attestatsiya komissiyasi qarori	2021-yil 20-may	Oliy attestatsiya komissiyasi, Suv xo‘jaligi vazirligi, ISMITI*, TIQXMMI**
28.	Suv xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi kollejlarning moddiy-texnik bazasi va o‘quv laboratoriya xonalarini zamon talablari asosida jihozlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 10-iyun	Moliya vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari
VII. Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish				
29.	Suv xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi kollejlarda huzurida tashkil etilgan mintaqaviy malaka oshirish markazlarida suv xo‘jaligi sohasidagi xodimlarning malakasini oshirishni tizimli tashkil qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili jadval bo‘yicha	Suv xo‘jaligi vazirligi, TIQXMMIMTU**, kollejlarda

30.	«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida shartnoma asosida rahbar-xodimlar malakasini oshirish hamda mintaqaviy malaka oshirish markazlari uchun trenerlar tayyorlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili jadval bo‘yicha	TIQXMMIMTU**, Suv xo‘jaligi vazirligi
31.	Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati xodimlari uchun 120 kvartirali ko‘p qavatli turar joy majmuini qurish maqsadida Toshkent shahri hududidan yer maydoni ajratish.	Toshkent shahar hokimligining qarori	2021-yil 20-may	Toshkent shahar hokimligi, Suv xo‘jaligi vazirligi
32.	Suv iste‘molchilari uyushmalari (SIU) rahbar-xodimlari uchun suv va suv resurslarini rejalashtirish, taqsimlash hamda ulardan foydalanish, shuningdek, SIU ni boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish (buxgalteriya hisobini yuritish, ish yuritish va boshqalar) bo‘yicha qisqa muddatli sayyor o‘quv kurslarini tashkil qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-oktabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Suv xo‘jaligi vazirligi
33.	Suvdan samarali foydalanish, suv iste‘moli madaniyatini	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021–2022-yillar	Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon

	shakllantirishga qaratilgan konferensiyalar, davra suhbatlari va seminar-treninglar tashkil etish.			xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari
34.	Suv xo‘jaligi sohasida suvdan foydalanuvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, suvdan oqilona foydalanish, suv iste‘moli madaniyatini shakllantirish va sohada innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan materiallar va roliklarni Internet tarmog‘ida keng yoritish hamda «Tomchi» mobil ilovasiga tizimli joylashtirib borishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021–2022-yillar	Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari

* ISMITI — Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti

** TIQXMMIMTU — «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil
6-apreldagi PQ-5055-son qaroriga
14-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktabrdagi «Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4486-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 1 va 4-bandlar, 5-bandning «a» kichik bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. 3-bandda:

ikkinchi-uchinchi xatboshilar chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi — o‘ninchi xatboshilar tegishincha ikkinchi — sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. 7-ilovaning 3 — 10-bandlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi
PQ-5055-son qaroriga
15-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof
etilayotgan ayrim qarorlar
RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3672-son qarori 1-bandi, 9-bandi ikkinchi xatboshisi hamda qarorning 1, 2, 3, 4, 5 – 5d, 6 va 6a-illovalari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4039-son qarori.